



LOKAL TARMOQ TOPOLOGIYASI

Qayumova Sh.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan Rva innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi Gijduvon tuman 2-son kasb hunar maktabi Maxsus fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Tarmoqdagi xost-kompyuterlarning adreslariga maxsus talablar quyiladi. Adres formatga ega bo'lishi kerak, bu format bir tomondan adresning sintaksis avtomatik qayta ishlashni bajarishga imkon berishi kerak,

Kalit so'zi: xost-kompyuter, Tarmoq, adreslar, Internet, Domenli adres, Tarmoq adresi.

Tarmoqdagi xost-kompyuterlarning adreslariga maxsus talablar quyiladi. Adres formatga ega bo'lishi kerak, bu format bir tomondan adresning sintaksis avtomatik qayta ishlashni bajarishga imkon berishi kerak, ikkinchi tomondan esa u semantik tusga ega bo'lishi kerak, ya'ni adreslanadigan ob'ekt to'g'risida biror ma'lumotni o'zida mujassamlashi lozim.

Shuning uchun xost-kompyuterlarning adreslari Internet tarmog'ida ikkilangan kodlashga ega bo'lishi mumkin:

- telekommunikatsiya tizimini tarmoqda ishlashi uchun qulay bo'lgan majburiy kodlash: kompyuterga do'stona raqamli IP-adres (IP — Internet Protocol);
- tarmoq abonenta uchun qulay bo'lgan majburiy bo'lmagan kodlash: foydalanuvchiga do'stona domenli DNS-adres (DNS-Domain Name System).

Raqamli IP-adres 32 razryadli ikqilik son ko'rinishga ega. qo'laylik uchun u to'rtga blokka 8 bitdan ajratilib, ular o'nlik ko'rinishda yozilishi mumkin. Adres kompyuterni identifikaciyalash uchun zarur bo'lgan to'liq malumotga ega.

Mumkin bo'lgan varianta: ikkita katta blok tarmoq adresini, ikkita boshqasi esa qism tarmoq adresini va bu qism tarmoq ichidagi xost-kompyuterning adresini aniqlaydi. Masalan, ikkilik kodida raqamli adres quyidagicha yoziladi:

10011000001001010100100010001010.



O'nlik kodida ushbu ko'rinishga ega: 152.37.72.138.

Tarmoq. adresi - 152.37; qims tarmoq. adresi - 72; kompyuter adresi -138.

Domenli adres bir-biridan nuqta bilan ajratiladigan bir nechta harf-raqamli domenlardan (Damain - soxa) tashkil topgan. Bu adres ierarxik tasnif asosiyqurilgan: eng chap chetdagidan tashqari har bir domen kompyuterlarning biror-bir belgilar bo'yicha ajratilgan butun bir guruhini aniqlaydi, bunda chapda joylashgan guruhlarining domeni o'ng domenning qism guruxi hisoblanadi. Hozirda tarmoqda hammasi bo'lib 120000 dan ortiqroq har xil domenlar mavjuddir.

Masalan, ba'zi mamlakatlarning geografik ikkita harfli domenlari:

- Avstriya — at,
- Bolgariya—br,
- Kanada — sa,
- Rossiya — ga,
- AQSh-Sh,
- Franciya — fr.

Biror mavzuga bagishlangan belgilar bo'yicha ajratilgan domenlar ham bordir. Bunday domenlar uchta harfli qisqartma nomga ega:

- davlat muassasalari — gor;
- tijorat tashkilotlari — com;
- o'quv yurtlari — edu;
- harbiy muassasalar — *mil*;
- tarmoq tashkilotlari — net;
- boshqa tashkilotlar — org.

Domenli adres ixtiyoriy uzunlikka ega bo'lishi mumkin. Domen adresini mos raqamli IP-adresga o'zgartirishni maxsus serverlar — nom serverlari bajaradi. Shuning uchun foydalanuvchining raqamli adreslarni bilishining keragi yo'q. Internet da ishlash uchun siz aloqa o'rnatmoqchi bo'lgan kompyuter yoki foydalanuvchining faqat domen adresini bilishingiz kerak. Ishlatilayotgan texnologiyaga bog'liq ravishda domen adresining oldida uning foydalaniladigan bayonnomasi yoki xizmati ko'rsatilishi mumkin. Masalan, Web-server bilan ishlaganda odatda gipermatnni uzatish bayonnomasi ko'rsatiladi va yuqorida



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

keltirilgan adres quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: <http://engec.spb.ra>. Bu URL-
adres deb ataladigan adresdir (URL — Uniform Resource Locator yoki
resurslarning universal ko'rsatkichi).

Foylanilayotgan adabiyotlar

- 1.M. Aripov, AHaydarov “INFORMATIKA ASOSLARI” TOSHKENT -2009
- 2.WWW. ZIYO NET.
3. WWW.ARXIV.UZ
4. M.Aripov “Internet va electron asoslari” Toshkent-2000y.